



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** *Salimov Oqil Umrzoqov*, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH .....	27
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	32
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<b>Soyibova Matluba Ahmedboyevna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	41
<b>M.O. Yo'ldoshova</b>	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH .....	45
<b>Anvar Deberdiyev</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI .....	49
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR .....	55
<b>Ishimova Mohinur Absalomovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	61
<b>Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna</b>	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	67
<b>Iskanov Xoljigit Nurkosimovich</b>	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI .....	73
<b>Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	79
<b>Yuldashev Akmal Kiyomovich</b>	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH .....	83
<b>Abirova Nargizabonu</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI .....	88
<b>Turayev Abduvohid Kuldashevich</b>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
<b>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	101
<b>Rustamov Zafar</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	107
<b>Metyakubov Azamat Djumanazarovich</b>	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	111
<b>Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	116
<b>Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.</b>	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	121
<b>Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
<b>Melibayev Sodir Adilovich</b>	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI .....	135
<b>Sheraliev Abbos Xolmuminovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN .....	140
<b>Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov</b>	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI .....	147
<b>Yuldashev Adhamjon Axadjonovich</b>	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
<b>Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li</b>	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
<b>To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi</b>	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI .....	162
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....	166
<b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	171
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	175
<b>Bo'taev O'tkir Eshboevich</b>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
<b>Umarova Malika Nematjanovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
<b>Рахмонов Джамшид Одил угли</b>	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
<b>Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна</b>	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
<b>Avazbek Jo'rayev</b>	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	207
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	211
<b>Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich</b>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
<b>Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
<b>Mohichexra Melikovna Mo'minova</b>	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI .....	233
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	239
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI .....	245
<b>Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich</b>	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
<b>Daminov Mirvoxid Isroilovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL .....	255
<b>Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	264
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
<b>Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI .....	276
<b>Namozov Shahzod Maxmud o'g'li</b>	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
<b>Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna</b>	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN .....	290
<b>Shokhrukh Ziyavaddinov</b>	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI .....	299
<b>Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI .....	306
<b>Turdiyev Izatulla Ollaqulovich</b>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	312
<b>Xoliqulova Yulduz Panji qizi</b>	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI .....	317
<b>Mavlonov Ozod Ulug'bekovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	322
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	



# QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

**Rajapov Xayrulla Bekdurdievich**

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD.  
ORCID: 0009-0004-2451-1531

**Sharipova Lobar Umrbek qizi**

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
Iqtisodiyot mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning Russia, South Koreya, China, European Union, United States va Japanda shakllangan ilg'or institutlari qiyosiy tahlil qilinib, ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitida qo'llashning ustuvor yo'nalishlari va amaliy imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotda agrar siyosatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, agro-sug'urta tizimi, smart farming texnologiyalari, ekologik to'lovlar hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning institutsional asoslari yoritilgan. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo'jaligida raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** davlat tomonidan tartibga solish, agrar siyosat, agro-sug'urta, to'g'ridan to'g'ri to'lovlar, smart farming, ekologik to'lovlar, oziq-ovqat xavfsizligi, extension xizmati, davlat yordami, xarid narxlari, klaster, suv tejovchi texnologiyalar.

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of advanced institutions of state regulation in agriculture developed in Russia, South Korea, China, European Union, United States, and Japan, while substantiating the priority directions and practical opportunities for their implementation in Uzbekistan. The study examines mechanisms of state support for agrarian policy, agro-insurance systems, smart farming technologies, environmental payments, and institutional foundations of food security. In addition, international experience in implementing water-saving technologies and developing digitalization in agriculture is analyzed.

**Key words:** state regulation, agrarian policy, agro-insurance, direct payments, smart farming, environmental payments, food security, extension service, state support, procurement prices, cluster, water-saving technologies.

**Аннотация.** В данной статье проведён сравнительный анализ передовых институтов государственного регулирования сельского хозяйства, сформировавшихся в Russia, South Korea, China, European Union, United States и Japan, а также обоснованы приоритетные направления и практические возможности их применения в условиях Uzbekistan. В исследовании рассмотрены механизмы государственной поддержки аграрной политики, система агрострахования, технологии smart farming, экологические выплаты и институциональные основы обеспечения продовольственной безопасности. Кроме того, проанализирован зарубежный опыт внедрения водосберегающих технологий и развития цифровизации в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** государственное регулирование, аграрная политика, агрострахование, прямые выплаты, smart farming, экологические выплаты, продовольственная безопасность, extension-служба, государственная поддержка, закупочные цены, кластер, водосберегающие технологии.

## KIRISH

Jahon agrar siyosatining hozirgi bosqichi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi hanuz yuqori bo'lsa-da, samarali mamlakatlar ushbu yordamni tobora ko'proq innovatsiya, bioxavfsizlik, infratuzilma, ekologik barqarorlik va bilimlar uzatish kabi umumiy xizmatlarga yo'naltirmoqda. Organisation for Economic Co-operation and Development ma'lumotlariga ko'ra, 54 mamlakatda qishloq xo'jaligiga ko'rsatilgan umumiy yordam 2022–2024-yillarda o'rtacha yiliga 842 mird AQSH dollarini tashkil



etgan. Shu bilan birga, umumiy xizmatlarga yo'naltiriladigan ulush nisbatan cheklangan bo'lib qolmoqda. Bu esa agrar siyosatda "ko'proq subsidiya" emas, balki "yaxshiroq institutlar" muhimligini anglatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi alohida biror subsidiya, imtiyozli kredit yoki moliyaviy yordam vositasi bilan emas, balki daromadlarni barqarorlashtirish, risklarni yumshatish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik muvozanatni ta'minlash va infratuzilmani rivojlantirish kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlarni qamrab olgan kompleks yondashuv bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy hamda boshqa rivojlangan mamlakatlarda shakllangan agrar siyosat modellarini qiyosiy o'rganish O'zbekiston uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish sohasida Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yevropa ittifoqi, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda shakllangan ilg'or tajribalarni tahlil qilish, ularning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash hamda ushbu mexanizmlarni O'zbekiston sharoitida qo'llashning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslari hamda usullari xorijiy olimlardan Frolova O.A., Vasileva S.Yu., Bugay Y.A., Krans Yurgen, Sergeyev O.Y., Arslanov Sh.Dj., Ninalalova L.G., Kosinskiy P.D., Xaritonov A.V., Galiyev R.R., Arens X.D., Aygumov A.D., Sultanov G.S., Sultanov M.R., Yunusova P.S., Axmedova J.A., Gayduk V.I., Nikiforova Y.A., Gladkiy S.V., Nedyuxina O.M., Jilyakov D.I., Kudzagov Z.S., Chinazirova S.K., Lebedev K.A. va boshqalar tomonidan o'z ilmiy tadqiqotlarida atroflicha muhokama qilinib, keng yoritilgan [1–13].


Shuningdek, Commonwealth of Independent States davlatlari iqtisodchi olimlaridan Narinbaeva A.S., Kasenova A.J., Saginova S.A., Kasimbekova M.A., Momunov U.N., Mataliyeva N.J., Shatmanova A.S., Abdiyev M.J., Kerimbayeva T.E. va boshqalar o'z ilmiy maqolalarida xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning xalqaro amaliyotini atroflicha muhokama qilib, keng yoritganlar [14–18].

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishning asosiy tendensiyalari hamda xorijiy tajribalari respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Murtazayev O., G'aniyev I.M., Hasanov Sh.T., Ahrorov F.B., Salimov B.T., Yusupov M.S., Rajapov X.B., Shoxo'jaeva Z.S., Ollokulova F., Ibragimov N.N., Abdiqobilov Sh.X. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan [19–26].

Quyida yuqorida ism-shariflari keltirilgan iqtisodchi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarining ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Frolova O.A. va Vasileva S.Yu.ning ilmiy maqolasida xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish masalalari ko'rib chiqilgan hamda ushbu mamlakatlar qishloq xo'jaligining hozirgi holati tahlil qilingan.

Gayduk Vladimir Ivanovich, Nikiforova Yuliya Aleksandrovna va Gladkiy Sergey Vladimirovich o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida World Trade Organization qoidalariga ko'ra qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning barcha choralarni uch toifaga bo'lib o'rganganlar (1-rasm).



1-rasm. JST qoidalariga muvofiq qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini tasniflash[8]



Barcha davlat tomonidan tartibga solish choralari “yashil quti”ning bir qismi sifatida tasniflanishi mumkin. Ushbu tizim, asosan, ichki oziq-ovqat yordamini, shuningdek, innovatsiya, inson resurslari, infratuzilma va atrof-muhit choralari orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Mazkur choralar “yashil quti”ga kiritiladi, chunki ular normal bozor raqobatiga xalaqit bermaydi. Shu sababli, JST qoidalari ularga nisbatan cheklovlarni belgilamaydi.

Narinbaeva Aina Serikovnaning ilmiy izlanishlarida agrosanoat majmuasini davlat tomonidan tartibga solishning xalqaro tajribasi qishloq xo'jaligi va moliyaviy siyosatni amalga oshirishning muhim dastaklaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ASMni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari va usullari atroflicha muhokama qilingan.

1-jadvalda AQSH, Yevropa va Xitoyda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlash choralari keltirilgan.

Murtazayev O., G'aniyev I.M., Hasanov Sh.T. va Ahrorov F.B. rivojlangan mamlakatlar agrar siyosatini uch guruh asosida o'rganish lozim, deb hisoblaganlar hamda uni quyidagicha guruhlaganlar:

1. Birinchi guruhga European Anion davlatlari kiradi. Ushbu davlatlar agrar siyosatining xususiyatlari shu qadar puxta va barqaror tizimga egaki, hozirga qadar agrar siyosat amaliyotida undan-da mukammal tizim shakllanmagan.

2. Ikkinchi guruhga AQSH, Yevropa va Kanada xo'jaligi tizimini kiritish mumkin. Ularning agrar siyosati bir-biriga juda o'xshash bo'lganligi sababli, AQSH agrar siyosati misolida uning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

3. Yaponiya agrar siyosati. Ushbu mamlakat qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish tadqiqotchilarni chuqur mushohada yuritishga undaydi. Mualliflar rivojlangan mamlakatlar agrar siyosatini alohida-alohida tahlil qilish lozimligini ta'kidlaganlar (1-jadval) [19].

1-jadval. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoyda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash choralari [14]

Qo'llab-quvvatlash choralari	AQSh	Yevropa Ittifoqi	Xitoy
To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar	+ fermer xo'jaliklarining sof daromadining 34,9%	+ Fermer xo'jaliklarining sof daromadining 35% dan ortig'i	+
Eksport subsidiyalari	+ Sut va parrandachilik mahsulotlari bilan cheklangan	+ Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining keng assortimenti; global eksport subsidiyalarining 90%	Subsidiyalar yo'q
Importni himoya qilish	+ O'rtacha tarif 12%; 24 «megatarif» (100% dan ortiq)	+ O'rtacha tarif 30%; 142 «megatarif» (100% dan ortiq)	+ O'rtacha tarif 15,23%
Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini qo'llab-quvvatlash	+	+	+
Imtiyozli kreditlar	+	+	+
Imtiyozli soliqqa tortish	+	+	+
Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash	+	+	+
Narxlarni tartibga solish	+ Qishloq xo'jaligining umumiy xarajatlarining 36%	+ Qishloq xo'jaligining umumiy xarajatlarining 61%	+
Sug'urta yordami	+	+	+

Rajapov X.B.ning “Chinese Experience in the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in the Fishing Field of Uzbekistan” deb nomlangan ilmiy maqolasida Xitoy Xalq Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalari, ularning qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan baliqchilik sanoatini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu sohada mavjud sharoitlar, imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinib, mamlakatimizda baliqchilikni yanada rivojlantirish hamda uni yuqori daromadli sohaga aylantirish bo'yicha Xitoy tajribasiga asoslangan ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Ibragimov N.N. “Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ekonometrik modellashtirish xorij tajribasining ahamiyati” nomli maqolasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish jarayonida ekonometrik modellashtirishning o'rni va xorijiy davlatlar tajribasining ahamiyatini ko'rib chiqqan. Muallif qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni



tahlil qilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ekonometrik modellardan foydalanish va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Abdiquobilov Shohzod Xusan o'g'lining ilmiy maqolasida xorijiy mamlakatlarda bog'dorchilik sohasiga investitsiyalarni jalb etish yo'nalishlari va mexanizmlari tahlil qilingan. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya, Hindiston va Tailand tajribalari asosida infratuzilmani rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik hamda moliyaviy rag'batlantirish vositalarining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, institutsional tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Xitoy, Hindiston, AQSH, Braziliya, Eron, Indoneziya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya va Turkiya davlatlarining qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyoti tanlab olinib, ularda shakllangan qo'llab-quvvatlash institutlarining barqarorligi, yuqori amaliy samaradorligi, innovatsiya va raqamlashtirish bilan bog'liqligi hamda rivojlanishning turli modellarini ifodalash xususiyati asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Har bir mamlakat tajribasining institutsional tuzilmasi, amal qilish mexanizmi, iqtisodiy samaradorligi va amaliyotdagi natijalari o'zaro taqqoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishni yaxshilash hamda takomillashtirish uchun rivojlangan qishloq xo'jaligiga ega xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ularni hozirgi iqtisodiy sharoitda O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish zarur.


2024-yilda qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi dunyo bo'yicha 4,02 foizni tashkil etib, 2020-yildagi 4,28 foizga nisbatan 0,26 foizga pasaygan.

2-rasmdan Xitoy qishloq xo'jaligining ham 2024-yilda YaIMdagi ulushi 6,78 foizni tashkil etib, 2020-yildagi 7,54 foizga nisbatan 0,76 foizga pasayganligini ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Xitoy qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi [27]

Quyidagi rasmda qishloq xo'jaligida bandlikning global ulushining 2024-2025-yillardagi qiyosiy tahlil keltirilgan (3-rasm).




3-rasm. Qishloq xo'jaligida bandlikning global ulushi, % [28].



2025-yilda qishloq xo'jaligida bandlikning global ulushi 25,78 foizni tashkil qildi. 3-rasmdan ko'rinadiki, Afrika eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etadi, Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan iqtisodiyotlarida esa eng past ko'rsatkichlar kuzatilmoqda.

3-rasmda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati bo'yicha yetakchi 10 ta mamlakat ro'yxati keltirilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati bo'yicha Xitoy (1 654 706,847 mln AQSH dollari) yetakchilik qilib, birinchi o'rinni egallagan. Hindiston (524 130,006 mln AQSH dollari) esa Xitoydan keyin ikkinchi o'rinni egallagan (4-rasm).



4-rasm. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish qiymati bo'yicha top 10 davlat, mln.\$ [29].

2-jadvalda muallif tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy tajribalari va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha qiyosiy tahlil keltirilgan.

Rossiyada davlat tomonidan tartibga solishning konseptual modeli agrar siyosatni oziq-ovqat xavfsizligi, import o'rnini bosish va texnologik mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan selektiv davlat qo'llab-quvvatlash modeli sifatida shakllantirgan.

Xitoyda davlat tomonidan tartibga solish yer va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatini oshirish hamda infratuzilmaviy-texnologik modernizatsiyani kuchaytirishga asoslangan (2-jadval).

2-jadval. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy tajribalari va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha qiyosiy tahlil [30]

Davlat	Davlat tomonidan tartibga solishning konseptual modeli	Asosiy tartibga solish instrumentlari	Institutsional-iqtisodiy ustun jihati	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyatlari
Rossiya	Agrar siyosat oziq-ovqat xavfsizligi, import o'rnini bosish va texnologik mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan selektiv davlat-qo'llov modeli sifatida shakllangan.	Imtiyozli kreditlash, ustuvor tarmoqlarga subsidiya, seleksiya va genetika loyihalarini moliyalashtirish, texnika xaridini rag'batlantirish va maqsadli budjet qo'llovi.	Davlat yordami strategik ahamiyatga ega yo'nalishlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish zanjirlariga yo'naltiriladi.	Suv tejovchi texnologiyalar, urug'chilik, qayta ishlash, saqlash va agrologistika loyihalariga maqsadli imtiyozli moliyalashtirishni joriy etish maqsadga muvofiq.
Koreya Respublikasi	Fermer daromadini barqarorlashtirish, ekologik majburiyatlar va raqamli modernizatsiyani o'zaro bog'lagan integral agrar siyosat modeli amal qiladi.	To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar, strategik ekinlar uchun qo'llov, erni yosh fermerlarga o'tkazishda kompensatsion to'lovlar, smart farming klasterlari va ta'lim-demonstratsiya maydonlari.	Daromad siyosatini er aylanmasi, avlodlar almashinuvi, raqamli innovatsiya va ekologik intizom bilan bir tizimga keltiradi.	Yosh fermerlar uchun uzoq muddatli ijara asosida tajriba-smart fermalarni tashkil etish, subsidiyalarni raqamli monitoring va ekologik shartlar bilan bog'lash mumkin.



Davlat	Davlat tomonidan tartibga solishning konseptual modeli	Asosiy tartibga solish instrumentlari	Institutsional-iqtisodiy ustun jihati	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyatlari
Xitoy	Davlat tartibga solishi er va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatini oshirish hamda infratuzilmaviy-texnologik modernizatsiyani kuchaytirishga asoslangan.	Minimal xarid narxlari, don yetishtiruvchilar uchun subsidiyalari, yuqori standartlik erlar siyosati, agrosug'urta mukofotlarini subsidiyalash va smart agriculture'ga sarmoya.	Davlat aralashuvi faqat narx qo'lloviga emas, balki er sifati, sug'orish, infratuzilma va texnologik yangilanishga tayanadi.	Yer va suv resurslarini yuqori standartlik uchastkalar tamoyili asosida modernizatsiya qilish, agrosug'urtani budget ishtirokida kengaytirish va hosildorlikni rag'batlantirish dolzarb.
Yevropa Ittifoqi	CAP modeli fermer daromadi, bozor barqarorligi, ekologik barqarorlik va hududiy rivojlantirishni birlashtirgan ko'p funksiyali tartibga solish tizimidir.	To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar, eco-schemes, kichik va o'rta fermerlar uchun qayta taqsimlovchi to'lovlar, yosh fermerlarga alohida kvota va milliy strategik rejalar.	Davlat yordami natijaga yo'naltirilgan bo'lib, to'lovlar ijtimoiy, ekologik va hududiy mezonlar bilan shartlanadi.	Ekologik to'lovlar, suv tejash, tuproqni muhofaza qilish va kichik fermerlarni qo'llab-quvvatlashni yagona indikatorlar asosida moliyalashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish mumkin.
AQSh	Bozor iqtisodiyotini saqlagan holda davlatning asosiy roli risklarni boshqarish, bilim va innovatsiyani tarqatish hamda favqulodda yo'qotishlarni yumshatish orqali namoyon bo'ladi.	Crop insurance, favqulodda ofatlar uchun kompensatsiya dasturlari, extension xizmati, tadqiqot-talim-amaliyot integratsiyasi va risk management dasturlari.	Davlat ishlab chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri boshqarmaydi; u fermerni xatarlardan himoya qilish va qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi.	Hosil, iqlim va bozor xavflarini qoplaydigan milliy agrosug'urta modeli, hududiy agro-extension markazlari va raqamli maslahat xizmatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.
Yaponiya	Cheklangan er maydoni, qarib borayotgan qishloq aholisi va tog'li hududlar sharoitida differensial qo'llab-quvvatlash hamda smart agriculture'ga o'tishga asoslangan model ustuvor.	Tog'li va chekka hududlar uchun maydonga bog'liq to'lovlar, multifunctional payment, smart texnologiyalarga moliyaviy rag'bat va mehnat tejoychi mexanizmlar.	Tabiiy va hududiy nomuvofiqlikni kompensatsiya qilish bilan bir vaqtda, mehnat unumdorligini raqamli va avtomatlashtirilgan texnologiyalar orqali oshiradi.	Suv ta'minoti qiyin va chekka hududlarda kompensatsion to'lovlar, kooperatsiya asosida umumiy xizmatlar hamda mehnat tejoychi smart uskunalarni joriy etish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning samarali modellari alohida moliyaviy yordam vositalariga emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi institutsional mexanizmlar tizimiga tayanadi. Xususan, Rossiya tajribasida strategik yo'naltirilgan davlat qo'llovi, Koreya Respublikasida to'g'ridan to'g'ri to'lovlar va smart farming tizimi, Xitoyda infratuzilmaviy modernizatsiya hamda agrosug'urta, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida esa risklarni boshqarish, ekologik barqarorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish ustuvor o'rin tutishi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil shuni tasdiqladiki, agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi qo'llab-quvvatlash hajmi bilan emas, balki uning maqsadliliigi, institutsional muvofiqiligi va natijadorlikka yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda agrar siyosatni takomillashtirishda imtiyoz va subsidiyalarni umumiy taqsimlash amaliyotidan bosqichma-bosqich natijaviy, manzilli hamda tarmoq ehtiyojlariga mos mexanizmlarga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun imtiyozli moliyalashtirishni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish, agrosug'urta tizimini rivojlantirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, ekologik



yondashuvlarni kuchaytirish hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish zarur. Ushbu yondashuvlar qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Фролова О. А., Васильева С. Ю. Государственное регулирование сельского хозяйства: зарубежный опыт // *Вестник НГИЭИ*. – 2011. – № 5(6). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-selskogo-hozyaystva-zarubezhnyy-opyt>
2. Бугай Ю. А., Кранц Ю., Сергеев О. Ю. Зарубежный опыт государственного регулирования аграрного сектора // *Вестник АГАУ*. – 2016. – № 12(146). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-agrarnogo-sektora>
3. Арсланов Ш. Д., Ниналалова Л. Г. Политика государственной поддержки и развития сельского хозяйства: зарубежный опыт // *РППЭ*. – 2016. – № 12(74). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politika-gosudarstvennoy-podderzhki-i-razvitiya-selskogo-hozyaystva-zarubezhnyy-opyt>
4. Косинский П. Д., Харитонов А. В. Государственное регулирование устойчивого развития сельского хозяйства: зарубежный опыт // *ПСЭ*. – 2016. – № 4(60). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-ustoychivogo-razvitiya-selskogo-hozyaystva-zarubezhnyy-opyt> (дата обращения: 16.04.2026).
5. Галиев Р. Р., Аренс Х. Д. Трансформированное сельское хозяйство Восточной Германии и Республики Башкортостан: реалии и перспективы // *Российский электронный научный журнал*. – 2017. – № 2(24). – С. 17–33.
6. Айгумов А. Д., Султанов Г. С., Султанов М. Р. Зарубежная практика государственной поддержки развития субъектов малого бизнеса в АПК // *РППЭ*. – 2018. – № 8(94). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnaya-praktika-gosudarstvennoy-podderzhki-razvitiya-subektov-malogo-biznesa-v-apk>
7. Юнусова П. С., Ахмедова Ж. А. Зарубежный опыт достижения конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции // *РППЭ*. – 2019. – № 2(100). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-dostizheniya-konkurentosposobnosti-selskohozyaystvennoy-produktsii>
8. Гайдук В. И., Никифорова Ю. А., Гладкий С. В. Опыт государственного регулирования сельскохозяйственного производства в Евросоюзе // *МСХ*. – 2019. – № 1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-selskohozyaystvennogo-proizvodstva-v-evro-soyuze>
9. Недюхина О. М., Панасюга Н. П. Зарубежный опыт государственного регулирования аграрного сектора экономики // *Проблемы экономики*. – 2020. – № 1(30). – С. 203–210.
10. Жилияков Д. И. *Механизм государственного регулирования аграрной экономики: российский и зарубежный опыт*. – Курск: Изд-во Курской ГСХА, 2021. – 170 с.
11. Кудзагов З. С., Кокоева Л. Т. Зарубежный опыт государственного регулирования агропромышленного комплекса // *Актуальные проблемы права*. – Владикавказ: Издательство «Терек», 2021. – Вып. 10. – С. 136–141.
12. Чиназирова С. К. Зарубежный опыт государственного регулирования АПК // *Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика*. – 2023. – № 1(315). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-apk-1>
13. Лебедев К. А., Андреев Д. Р. Зарубежный опыт государственного регулирования продовольственного рынка // *Управленческий учет*. – 2024. – № 3. – С. 352–366.
14. Narynbaeva A. S. Foreign experience of state regulation of agrarian and industrial complex // *Herald of KRSU*. – 2014. – Vol. 14, No. 4. – P. 178–182.
15. Касенова А. Ж., Сагинова С. А. Зарубежный опыт государственного регулирования продовольственного рынка // *Проблемы агрорынка*. – 2016. – № 2. – С. 125–129.
16. Касимбекова М. А., Баймагамбетова З. А., Матайбаева Г. Ж. Зарубежный опыт государственного регулирования агропромышленного комплекса // *Экономическая серия Вестника ЕНУ им. Л. Н. Гумилева*. – 2022. – № 4. – С. 143–151.
17. Момунов У. Н., Маталиева Н. Ж., Шатманова А. С. Зарубежный опыт государственного регулирования сельского хозяйства // *Экономика и бизнес: теория и практика*. – 2024. – № 11-3(117). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-selskogo-hozyaystva>
18. Абдиев М. Ж., Керимбаева Т. Э. Зарубежный опыт инвестиций в сельском хозяйстве // *Экономика и бизнес: теория и практика*. – 2024. – № 7. – С. 6–10.
19. Муртазаев О., Фаниев И. М., Ҳасанов Ш. Т., Ахроров Ф. Б. *Аграр сиёсат ва қишлоқ хўжалик бозорлари*. – Самарқанд, 2009. – 186 б.
20. Салимов Б. Т., Юсупов М. С. *Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш*. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2011. – 223 б.
21. Юсупов М. С. *Жаҳон амалиётида қишлоқ хўжалигини тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий механизмлари*. – Тошкент: IQTISODIYOT, 2017. – 282 б.
22. Rajarov Kh. B. Chinese experience in the development of small business and private entrepreneurship in the fishing field of Uzbekistan // *Экономика и предпринимательство*. – 2022. – № 3(140). – С. 851–855.
23. Shoxojaeva Z. S. *Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti*. – Qarshi: "Intellekt" nashriyoti, 2022. – 395 b.
24. Ollokulova F., Jabborov J. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish // *Green Economy and Development*. – 2023. – Vol. 1, No. 9. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2359>



25. Ibragimov N. N. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ekonometrik modellashtirish xorij tajribasining ahamiyati // *Green Economy and Development*. – 2024. – Vol. 2, No. 9. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.15848712>
26. Abdqobilov Sh. X. O'. Bog'dorchilikka investitsiyalar kiritish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi // *IQRO INDEXING*. – 2026. – Vol. 19, No. 02. – P. 634–636. – URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/23730>
27. [Statbase Agricultural Value Added Share Dataset](#) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
28. [Statbase Employment in Agriculture Dataset](#) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
29. [Worldostats Agricultural Production by Country](#)
30. Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---